“Bolaligim qoldi ortimda” mavzusidagi So’nggi qo’ng’iroq ssenariysi.

Maktab hovlisi bayramona bezatiladi. Kiraverishda “Birinchi qo’ng’iroqdan, so’nggi qo’ng’iroqqacha”, “Xayr, jonajon maktab!”, “Sizga ta’zim, sizga ehtirom”, “Oq yo’l sizga bitiruvchilar” kabi shiorlar osiladi. Maktabga ota – onalar, homiy tashkilotlar vakillari, mahalla faollari, faxriy o’qotuvchilar va bishqa mehmonlar taklif qilinadi.

1 va 9 – sinf o’quvchilari belgilangan joyda saf tortib turadilar.

Ma’naviy –ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari kechani ochiq deb e’lon qiladi. O’zbekiston madhiyasi yangraydi. davlatimiz bayrog’i ko’tariladi. Dastlabki so’z maktab rahbariga beriladi.

Maktab rahbari tashrif buyurgan mehmonlarni tanishtirib, bitiruvchi o’quvchilarning yutuqlari haqida so’zlaydi. Olimpiada g’oliblari hamda o’quvchilarga faxriy yorliqlar topshiriladi.

Kechaning qolgan qismi bitiruvchilar orasidan tayinlangan boshlovchilar tomonidan davom ettiriladi.

I boshlovchi: Assalomu alaykum, mehmonlar, mehribon murabbiylar!

II boshlovchi: Assalomu alaykum, yetuklik damlarining unitilmas daqiqalarini qalblarida hayajon bilan qarshi olayotgan bitiruvchi tengdoshlar!

III boshlovchi: Assalomu alaykum, bugungi kechamiz qahramonlariga havas bilan tikilayotgan jajji ukajonlar!.

IV boshlovchi: mana bugun yurtimizdagi barcha umumta’lim maktablarida katta tantana – “So’nggi qo’ng’iroq” tadbiri o’tkazilmoqda.

I boshlovchi: Biz bitiruvchilar orziqib kutgan quvonchli va hayajonli damlar arafasida turibmiz.

II boshlovchi: Garchand shu kunni orziqib, havasla kutgan bo’lsakda, qalbimizning tub – tubidan shu aziz maktabimiz quchog’ida, sinfdoshlar davrasida yana bir kungina qolgimiz keladi.

III boshlovchi: 9 yil biz ta’lim olgan qadrdon maktab bilan xayrlashish qanchalik og’ir ekanini ayni shu daqiqalarda his qilayapmiz.

IV boshlovchi: Lek hayot, vaqt faqat oldinga intiladi.

I boshlovchi: *Bolaligim qoldi ortimda,*
O’n oltida yoshginam hozir.
Katta hayot yo’li oldinda,
Katta hayot peshboz, muntazir.

II boshlovchi: *Sevinchdanmi ko’zimda shabnam,*
Dilda mehrim, boqaman shodon.
Chin do’stlik yo muhabbat, bilmam,
Qalbimida bor bir shirin tug’yon.

III boshlovchi: 9 yil ilgari ilk maktabga kelgan chog'imizda qo'llarimizdan ushlab xonalariga yetaklagan, bizga o'qishni, yozishni o'rgatgan ustozlarimizning mehnatini sanasak, e – he vaqtimiz ham yetmaydi.

IV boshlovchi: maktab deganimizda eng avvalo ko'z ongimizda ustozlarimiz, ularning igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli mehnatlari –yu kunni tunga ulab sabr – bardosh bilan bilim berishlari gavdalanadi.

I boshlovchi: Ha, aziz ustozlar. Sizni e'zozlamagan shoir, ta'riflamagan shogird topilmasa kerak.

II boshlovchi: Siz tundagi yo'lchi yulduzdek o'z bilimlaringiz bilan shogirdlaringiz dilini yoritasiz. Ular ko'ngliga malham bo'lasiz.

III boshlovchi: "Alifbe" kitobini varaqlab, har bir harfga qiziqsinib, tikilganimizda, ana shu siru sinoatga to'la kitobimizni sabr – bardosh bilan o'rgatgan ustozlarga yana bir bor ta'zim qilgimiz keladi.

IV boshlovchi: *45 daqiqa sirin kim bilar,*
Sochingiz oqiyu ajinlar ular.
Bolalar qalbiga tushgan tuyg'ular,
Vatanimning dono muallimlari.

I boshlovchi: *Sinflar to'lishib to'lib boradi,*
Ilm dengizida suzib boradi,
So'zlaridan gullar tuzib boradi,
Vatanimning dono muallimlari.

II boshlovchi: *Shodliklar ko'p, uning sanog'i yo'qdir,*
Siz bergan mehrning adog'i yo'qdir,
Siz kabi limning fidosi yo'qdir,
Vatanimning doni muallimlari.

Bitiruvchilar davraga chiqib 9 – yil ichida xotiralarida chuqur iz qoldirgan shodiyona kunlar, birinchi o'qituvchilari, birinchi yodlagan she'rlari, eng qiziqarli voqealarni, ustozlarga bag'ishlab o'zlari yozgan she'r va qo'shiqlarni ijro etishi tavsiya etiladi.

III boshlovchi: Post aytsam, o'zingsan eng avval daho,
Sen hayot ganjida duru bebaho.

IV boshlovchi: Ulug' ayyomdagi she'riy kalom bu,
Shogirdlar nomidan qutlug' salom bu.

I boshlovchi: Sizga bag'ishlanur do'stlar salomi,
Sizga bag'ishlanur shogird kalomi.

II boshlovchi: Bugun o'zgachadir olam jamoli,
Tabriklar tugamas bitmas davomi

I boshlovchi: Biz hayotimiz davomida nelarga erishmaylik, qaylarda bo'lmaylik, qalbimizning bir chetida qadrdon go'shamiz – aziz maktabimiz xotirasi, sog'inchi yashaydi.

II boshlovchi: Ko'ngillarimiz to'rida eas, siz aziz ustozlarga bo'lgan mehru muhabbat, buyuk ehtirom yashaydi.

III boshlovchi: Bizni yetuklik olamiga kuzatayotgan mo'tabar va munavvar ustozlarimizning mehr to'la duosi qalbimzida muhrlanadi.

I boshlovchi: *Shogirdlar bilimi – qanotdir sizga.*
Mehnatga halollik – sadoqat sizga.
Xotirjam yashamoq chin rohat sizga,
Siz asl insonsiz, dono muallim!

II boshlovchi *Qalblarga ilmlar o'ygan naqqoshsiz*
To'yu marakalar to'rida boshsiz.

Yaxshilik yo'lida doim yo'ldoshsiz,
Siz shunday buyuksiz aziz muallim!

Ustozlar haqidagi qo'shiq ijro etiladi.

II boshlovchi: *Yillar o'tib ulg'aysak bir kun,*
Yoshligimiz xayol bo'ladi,
Aytilmagan dil so'zlar uchun,
Yuraklarda armon to'ladi.

III boshlovchi: *Arzimagan bir gap talashib,*
Arazlashib qolardik goho,
Zumda olar edik yarashib,
Oh, bolalik qanday bebaho.

IV boshlovchi: *Ajralishsak, o'yga tolamiz,*
Shu beg'ubor damlarni eslab,
Ko'ngilgada qo'lni solamiz,
Bolalikni, do'stlikni qo'msab.

(Davraga bitiruvchilar chiqib "Biz bitiruvchilar o'n yildan so'ng" deb nomlangan sahna ko'rinishini namoyish qilishlari tavsiya qilinadi. Bunda bitiruvchilar 10 yildan so'ng turli kasb egalari bo'lib yetishgan va o'z sohalari bo'yicha Vatanimiz ravnaqiga munosib hissalarini qo'shmoqchi bo'lgan yoshlarimizning kelajak haqidagi tasavvurlari namoyish qilinishi mumkin)

II boshlovchi: Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim tizimidagi muhim islohotlar, ta'lim – tarbiya mazmunidagi milliylik va yoshlarning xorojiy davlatlarda ta'lim olish imkoni yaratilganligi quvonchli holdir.

III boshlovchi: Bundan tashqari "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning bosqichma – bosqich hayotga tadbiq etilayotganligi biz yoshlar kelajagini o'ylab qilinayotgan ishlardir.

1 – sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan "Eng odobli o'quvchi", "Eng quvnoq o'quvchi", "Eng bilimdon o'quvchi", "Maktabning bilimdoni", "Eng yaxshi qo'shiqchi" kabi bitiruvchilarga bag'ishlangan to'rtliklar, she'rlar, qo'shiqlar, aytishuv va laparlar ijro etiladi. She'rlar hazil, yumor tarzida bo'ladi.

Buyuklik qasrining ulug' ne'mati
Qarshingizda lol-u hayratda bahr
Fozillar dunyosin yaratguvchi zot
Xalqqa ulashdingiz mangu iftixor
Tong deyinmu sizni quyosh deyinmi
Ta'rif aylamoqqa ojiz qalamim

Bilim chirog'ini tutqazgan ustoz
Ta'zim qabul aylang qalb ehtiromim.
Rostin aytsam o'zingsan eng qimmatbaho
Sen hayot qo'ynida duru bebaho
Ulug' ayyomingda she'riy kalom bu
Shogirdlar nomidan qutlug' salom bu.

Bitiruvchilar o'zlari tayyorlagan sovg'alarni 1 – sinf o'quvchilariga beradilar. 1 –sinf o'quvchilari esa ularga guldastalar taqdim etadilar.

Mehmonlar va ota –onalarga so'z beriladi.

I boshlovchi: So'nggi qo'ng'iroq – bu bitiruvchilarning maktab bag'ridagi o'quvchilik damlarining so'nggi daqiqalari.

II boshlovchi: So'nggi qo'ng'iroq – bu ustozlarning shogirdlarga qilayotgan duosi.

III boshlovchi: So'nggi qo'ng'iroq – bu maktabning bitiruvchilar bilan o'ziga xos xayrlashuvi.

IV boshlovchi: So'nggi qo'ng'iroq – bu bolalik intixosiyu yetuklik olamining ibtidosi.

11 – sinf bitiruvchisi hamda 1 – sinf o'quvchisi so'nggi qo'ng'iriqni chaladi.

I boshlovchi: Aziz mehmonlar, ustozlar va o’quvchilar, shu bilan “So’nggi qo’ng’iroq” tadbiriga bag’ishlangan tantanali kechamizna yakunlaymiz.

“So’nggi qo’ng’iroq” qo’shig’i ostida bitiruvchilar 1 – sinf o’quvchilarini yetaklab chiqib ketadilar

Shodliklarim cheksiz biroq,
Ayriliqdir og’irroq
Yuraklarga larza solar
Har on so’nggi qo’ng’iroq
Ey, cholg’uvchi qo’ng’iroqni
Chala qolgin jo’shqinroq
Qayda yurak esda bo’lsin
Har on so’nggi qo’ng’iroq
Yillar o’tdi biz ulg’aydik,
Olib ilm sirlarin
Ta’lim bergan ustozlarga
Deymiz rahmat, ofarin